Sh.Xolmirzayev hikoyalarida qahramonlar obrazi

Mamayusupova Saodat Mamatqulovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, f.f.falsafa doktori (PhD)

E-mail : saodatmamayusupova78@gmail.com tel:(93)3026378

Hikoyada qahramonlar obrazini badiiy vositalarning yangicha ko‘rinishlari bilan berish tamoyili 60-yillarda o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan Sh.Xolmirzayev ijodiga o‘ziga xos uslub sifatida ko ‘rina boshladi.Uning “Olis yulduzlar ostida”(1968)nomli to‘plamiga kiritilgan ilk hikoyalaridayoq ana shu tamoyil o ‘z ifodasini topgan edi.Yozuvchi o‘zining dastlabki hikoyalaridan boshlab, hayotda o‘z o‘rniga, muayyan ijtimoiy mavqega, o ‘ziga xos xarakterga ega bo ‘lgan qahramonlar obrazini olib kirdi. Uning qahramonlari tabiatning go‘zal qo‘ynida ulg`aygan qishloq odamlari,qishloqda kamol topib, shaharda o ‘qigan va shu yerda qolib turli vazifalarda ishlayotgan kishilardir. Demak,qishloq tabiati unda ulg`aygan inson, bu insonning tabiatdan uzoqlashib shaharga kelishi va yana qishloqqa tabiatga birga o‘sgan do‘stlariga intilish Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi hayot va inson tasvirining asosiy syujet o‘zaklarini tashkil etadi. Ayni paytda yozuvchining dastlabki hikoyalaridan boshlab ko ‘zga tashlangan va butun ijodida qayta-qayta qo‘llanilgan tasvir usuli uning hikoyachilikdagi o‘ziga xos uslubini tashkil etuvchi unsurlar darajasiga ko‘tarilganligi e’tiborga loyiqdir. Sh.Xolmirzayev hikoyalaridagi syujet o‘zaklarining o‘zaro yaqinligi yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi,degan fikrni uyg`otmasligi kerak.Zero,uning hikoyalarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalarda,ularning jamiyatga,tevarak-atrofdagi odamlarga bo‘lgan munosabatlarda ,uy-kechinmalarida ,ma’naviy dunyosiga bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-

baranglik mavjudki, bu yozuvchining badiiy iqtidori va notiq so‘zni his qilish tamoyili nihoyatda teranligini ko ‘rsatdi.

60-yillar o ‘zbek hikoyachiligi Sh.Xolmirzayev qahramonning qanday yangi tipini olib kirdi. Bizningcha, uning hikoyalaridagi qahramon, eng avvalo, o ‘zining ruhiy va aqliy salohiyatining rang-barang shakllari bilan namoyon bo ‘ladi.

Sh.Xolmirzayev o ‘z qahramonlarining ichki hayoti va ruhiy kechinmalarini aql-zakovatini, umuman ma’naviy olamini ochish bilan jamiyatimizdagi millatimiz orasidagi mavjud hayotiy tiplarining umumlashma obrazini ko‘rsata oldi.Sh. Xolmirzayevning dastlabki hikoyalaridan biri “Sog`inch”dir.Bu asarda ikki qadrdon do‘stning-qishloqda birga o ‘sib birga katta bo ‘lgan Azim va Ismatning obrazi yaratilgan.Ularning ijtimoiy kelib chiqishi ham turlicha:Azim maktab direktorining farzandi ,Ismat esa maktab qorovuli oilasida tug`ilib o ‘sgan. Ular maktabda birga o ‘qishadi.Lekin yozuvchi aytganidek, taqdir g`alati ekan; Azim taniqli rahbar bo‘lib shaharda qolib ketadi. Ismat esa oddiy xizmatchi bo‘lib,qishloqda yashaydi. Qahramon ma’naviy dunyosining shakllanishida uning ijtimoiy hayotdagi mavqei va odamlarning unga munosabati muhim omil bo ‘lib xizmat qiladi. Bunday hayotiy lavhalar tasviri hikoyada badiiy haqiqat darajasiga ko ‘tarilgan.Yozuvchi ana shu badiiy haqiqatni qahramonlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati ruhiy-kechinmalari ,do ‘stlikni tushunish va his eta olish iqtidorini tasvirlash orqali ochib beradi. Azim maktabda o‘qib yurganida Ismatlarnikiga borib turardi, uni ovga borishga taklif qilardi. Endi u shaharda o ‘qib, katta rahbarlik lavozimiga ko ‘tariladi. Xuddi shuningdek, “Navro‘z, Navro‘z...” hikoyasi qahramoni yosh doktor Sulton tasavvufiy kitoblarni o‘qib chiqib, “Komil inson” bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Sulton keksa fan doktori Joniqul Jondor bilan hech kelishmaydi. Navro‘z bayrami munosabati bilan Sulton Joniqul Jondordan kechirim so‘rab kelsa, u bu samimiyatni tushunmay, ularning munosabatlari badtar chigallashadi. Akademik Obidjon Odiljonov ularni yarashtirib

qo‘yadi. Umuman olganda, hikoyada Navro‘z bayramida orasidan ola mushuk o‘tgan odamlar, albatta, yarashishi kerak degan, xalqona milliy qadriyat, bosh qahramonning chuqur psixologik holati, ayniqsa, o‘jar tabiat Joniqul Jondor bilan hech gapi kelishmay, ular o‘rtasidagi dramatizmning kuchayishi nihoyatda mahorat bilan aks ettirilgan.

Hikoyada folklorizmlar nihoyatda mohirlik bilan ishlatilgan. Jumladan, *“Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi”, “ishi o‘ngidan keldi”, “ikki og‘iz gap”, “sadqayi...”, “tomdan tarasha tushganday”, “boshimni qotirmang”, “boltadan toymaydi”, “Xudo uriblar kunpayakun qilsin”, “Jahl kelganda, aql qochar”, “Gapning po‘stkallasi”, “He, padaringga...”, “Uniyam gapida jon bor”* va h.k. xalq maqollari, iboralari, obrazli ifodalar, xalq qarg‘ish va so‘kishlari qo‘llanilgan.

Bundan tashqari, Sultonning ichki o‘yida bir xalq afsonasi keltiriladiki, bu afsona mohiyati bevosita hikoyada hayotiy voqealarga uyg‘undir. Shu parchani keltiramiz: “– Birodarlar, –dedi shunda Obidjon nari-beriga qarab. (Sulton sezdi: u jindek otib olgan – hidi kelayotir). – Bugun shunday bir kunki, Oy bilan Quyosh yarashadi! – Sulton o‘sha afsonani esladi: Ular ikkovi opa-singil bo‘lishgan, keyin janjallashib qolib, Oy Quyoshning yuziga bir hovuch ignani sochib yuborgan. Quyosh esa Oyning aftiga bir hovuch kulni sepib yuborgan”[1]. Oy va Quyosh afsonasi mazmuni qahramonning ongostida xotirlanadi. Ammo akademik Obidjon Karimov mazkur matal mazmunini kasbdoshlariga eslatib, ikki raqib olimni Navro‘z kunida yarashtirib qo‘yadi. Xullas, Shukur Xolmirzayevning har ikki hikoyasida o‘zbek xalqining milliy qadriyatiga aylanib ketgan ijtimoiy-etnografik hayotini o‘zida chuqur ifodalagan Navro‘z bayrami bilan bog‘liq urf-odatlar, bayram tadbirlari, bayramga nisbatan uyushtirilgan ta’qiblar xolis yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Холмирзаев Ш. Наврўз, Наврўз... / Холмирзаев Ш. Сайланма. III жилд. Ҳикоялар. –Т.: Шарқ, 2006. – Б. 127-128.

1.Дониярова Ш. Ижодкор ва услуб. –Т.: Турон замин зиё, 2014. – Б. 39.

2.Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар.

3.Холмирзаев Ш. Қария / Сайланма. I жилд. Ҳикоялар. –Т., 2003. – Б. 283-284.

4.Холмирзаев Ш. Олис юлдузлар остида / Сайланма. I жилд. Ҳикоялар. –Т., 2003. – Б. 40-41.

5. Холмирзаев Ш. Олис юлдузлар остида / Сайланма. I жилд. Ҳикоялар. –Т., 2003. – Б. 46.

6.Қаҳҳор А. Ўтмишдан эртаклар / Танланган асарлар. 3 жилдлик. –Т.: Янги аср авлоди, 2015. - Б. 102.